

## HOZIRGI TURKIY TILLARDA KELISHIK KATEGORIYASI

*Ikbol Shamsudinova  
Abdunazarova Muqaddas*

*Tòrayeva Muattar*

*Abdurahmonova Dilafruz*

*TerDu, òzbek filologiyasi fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi turkiy tillarda faol qòllanuvchi kelishiklar haqida fikr yuritilgan bòlib, mulohazalar òzbek, qirgiz, gagauz, oltoy, turkman misolida ochib berilgan.

**Kalit sòzlar:** kelishik, kategoriya, bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, òrin-payt kelishigi, chiqish kelishigi, qiyos.

Ot turkumidagi sòzning yoki ismlarning qòshimchalarini olib òzgarishi turlanish deyiladi. Kelishik qòshimchalari ( egalik qòshimchalari bilan bir qatorda) turlovchi qòshimcha hisoblanadi.

Turkiy tillardahi ism guruhiga oid sòzlarda yagona tipdagi turlanish tizimi mavjud. Qadimgi turkiy tildagi kelishiklar tizimi hozirgi turkiy tillardagi kelishiklar tizimiga nisbatan ham sifat ham miqdor jihatdan farqli ekanligi kòzga tashlanadi. Buning dastlabki sababi tarixiy taraqqiyot yòli hisoblansa, boshqa bir sababi ba'zi turdagi kelishiklarning grammatik ma'nosi tubdan òzgarib ketganligi hamda son jihatdan kamayib ketganligidir.

Turkiy tillar qiyosiy grammatikalarida hozirgi turkiy tillarda 6-8 kelishik mavjudligi haqida gap borsa-da, ayrim til va lahjalarda tushum, qaratqich, jònalish, chiqish, òrin- payt kelishiklarining bir shaklda qòllanishi, ba'zi tillar, jumladan, yoqut tilida qaratqich kelishigining umuman qòllanmasligini hisobga olib hozirgi turkiy tillarni 5-7 kelishik tizimiga ega deyish mumkin.

Bosh kelishik qadimgi turkiy tillarda ham hozirgi turkiy tillarda ham hozirgi turkiy tillarda ham maxsus grammatik kòrsatkichga ega bòlmagan, nol kòrsatkichli kelishikdir. Bu kelishik boshlanğich forma sifatida boshqa kelishiklarga zid qòyiladi.

Qaratqich kelishigi qadimgi turkiy tillarda mavjud bòlmagan. Qadimgi turkiy tillarda qaratguvchi va qaralmish bosh kelishikdagi ikki otning sintaktik aloqasi orqali shakllangan. Buning ayrim kòrinishlari hozirgi turkiy tillarda ham kòrinadi. Masalan: yoqut tilida òt baka (ot boshi), at bash ( ot boshi) kabi. Hozirgi turkiy qaratqich kelishigi eng kòp vatianti kelishik formalaridan biri hisoblanadi.

nin//nì tatar, uyğur tillariga xos, òquvchining ataniğ, bizniğ.

-nin// nun//din//dun//tin// tun//: qirgiz tili-balanin, tonun, tondun, oqtun, bizdin:

-in//un//nin//nun: Ozarbayjon, gagauz, turk-kitobin, arabanin, onlarin, bənim, bizim:

-ni//di//ti//mi//zi//si//ri ʻzbek tili Toshkent dialekti nonni, otti, tommi, tuzzi, suvvi:

Yoqut tilida qaratqich kelishigi mavjud emas. Buni ba'zi turkshunos olimlar qaratqich kelishigi turkiy tillarning ajralishi, tarqalishi davridan keyin paydo bʻlgan, bu davrday yoqut tili boshqa turkiy tillar bilan aloqada bʻlmaganligi, hududiy va iqtisodiy turmush sharoiti jihatidan ham turkiy xalqlardan uzoq bʻlganligi sababli yoqut tili qadimgi 5 kelishik shaklini saqlab qolgan deb taxmin qilishadi.

Tushum kelishigi hamma turkiy tillarda ma'no jihatdan bir xil bʻlib, fe'ldan anglashilgan harakatni qabul qilgan obekt, harakatning bajarilishidagi vosita, qurol ma'nosini anglatadi. Hozirgi turkiy tillarda tushum kelishigi qʻshimchasi quyidagi kʻrinishlarga ega:

-ni//nu//ny//nu//no//di//du//do: ʻguz guruhi tillarida oltoy tillarida: qapti (qopni), qardi (qorni)

-i// u, -yi// -yu: gagauz turk tillarida: burnu, biyeyi (yilqini) -ni//nu//(y)i//(y) u: Ozarbayjon yoqut, turkman tillarida: apani, adami, buʻduyu.

Jʻnalish kelishigi: Hozirgi turkiy tillarda asosan bitta ma'noni harakatning yʻnalish nuqrasini ifodalaydi. Hozirgi turkiy tillardagi jʻnalish kelishigi formasi deb sanaladigan barcha qʻshimchalarning tarkibida a unlisi uchraydi -ga, -ka, -qa, -ga, -cha kabi. ga(-qa, ja) // -qa// -xa// -ga// -qo// -xo: qirgʻiz tilida -malga, tongo, atqa, yoqut tilida -dalga (suruvga), qysqa (qizga) -a//ja: ʻguz guruhi tillari: gagauz kira (dalada) masaja (stolga), turkman gechara (echkiga), durnaa (turnagaa).

Qadimgi turkiy tilda hozirgi turkiy tillar uchun arxaik hisoblangan -gari// -kari, -gari// -qari formasi ham bʻlgan. Hozirgi ʻzbek tilidagi ilgari, ichkari, tashqari kabi sʻzlar tarkibida uchraydigan -gari// -kari// -gari// -qari affikslari ma'lum davrlarda hozirgi ma'nosi singari jʻnalish ma'nosini anglatgan.

ʻrin-payt kelishigi harakat sodir bʻlgan ʻrin, payt, yoki harakatning bajarilishiga vosita bʻlgan predmeti ma'nosini anglatadi. ʻrin-payt kelishigining qʻshimchasi qadim turkiy tilda -da// -də, -ta// -tə, bʻlib, hozirgi turkiy tillarda -da// -do// -ta// -la// -lo// -za// -zo// -sa// -so// -na// -no shakllari mavjud. Masalan: Oltoy tili -tuda (toʻgda) emde (emda-dorida) qayda(qʻyda). Chuvash -lajara (otda), xulara (shaharda), kilde (uyda) kabi.

Chiqish kelishigi fe'ldan anglashilgan harakatning boshlanish ʻrni, payti harakatning bajarilish yo bajarilmasligiga vosita bʻlgan predmetni anglatadi. Chiqish kelishigi qʻshimchasi hamma turkiy tillarda yigirmadan ortiq variantlari bor. -dan// don// tan// ton// nan// non// lan// lon// zon// son// san. Ozarbayjon dagdan, mendan, bizdan. ʻzbek -uydan, daladan, maktabdan. tan// tan// ton yoqut tilida: tastan (toshdan), ayurtan (ʻrmonda), tabattan (buʻgudosh) kabi. -tan// ran: chuvash tilida

lajaran ( otdan), xularan (shahardan), varmandan ( òrmondan), uramran ( kòchadan) va boshqalar.

Xulosa òrnida shuni ta'kidlamoğimiz joizki, turkiy tillarning materiali kelishik tizimini tarixiy jihatdan ikki kòrinishini belgilash imkonini beradi. Dastlabkisi qadimiyoq bòlib, bobotil davriga xos bòlsa, keyingisi turkiy tillarning lahja va dialektlariga ajralish va undan keyingi taraqiyyot bosqichlarini òz ichiga oladi. Qadimgi turkiy tillardagi kelishiklar tizimi hozirgi turkiy tillar kelishiklar tizimidan ham sifat, ham miqdor jihatdan tafovutlarni hosil qilishini kòrishimiz mumkin. Bundan tashqari qadimda ular anglatgan ma'no jihati boshqa bòlsa, hozirda boshqacha shuningdek, qadimgi turkiy tilda kelishiklarning son jihatdan kòpligi kishini hayratda qoldirsa, hozirgi turkiy tillarda kelishiklarning avvalgiga nisbatan biroz kamayganligi yoxud fonetik jihatdan òzgarishlarga uchraganligi kòzga tashlanadi. Biroq shunga qaramasdan qadimgi turkiy tillarda ham, hozirgi turkiy tillarda ham kelishiklar sòzlarni ma'no- mazmun jihatdan jipslashtirib turuvchi birlik sifatida baholagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi Fan nashriyoti Toshkent -2004.
2. Rafiyev A. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi (òquv qòllanma) Toshkent -2004.
3. Dadaboyev H, Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi Toshkent-2015.